







## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 24 003,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>21 573,7</b>	<b>24 003,6</b>	<b>104,4</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 693,1	23 302,0	104,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	880,6	701,6	104,8
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 693,1</b>	<b>23 302,0</b>	<b>104,4</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>10 710,9</b>	<b>11 736,8</b>	<b>105,6</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 126,4</b>	<b>3 871,8</b>	<b>110,1</b>
	sanoat	1 402,3	1 823,3	113,9
	qurilish	1 724,1	2 048,5	107,1
	<b>Xizmatlar</b>	<b>6 855,8</b>	<b>7 693,4</b>	<b>99,8</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 779,9	1 956,8	97,8

		Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	941,8	1 035,6	101,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 134,1	4 701,0	100,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 040,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga yuqoridir.



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 50,4 % ni, sanoat tarmog'i 7,8 % ni, qurilish 8,8 % ni va xizmatlar sohasi 33,0 % ni tashkil qildi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	97,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	2,9
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>51,8</b>	<b>50,4</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15,1</b>	<b>16,6</b>
	sanoat	6,8	7,8
	qurilish	8,3	8,8
	<b>Xizmatlar</b>	<b>33,1</b>	<b>33,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,6	8,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,9	20,2





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)




YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 105,6 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 50,4 %), sanoatda – 113,9 % (7,8 %), qurilishda – 107,1 % (8,8 %), xizmatlar sohasida – 99,8 % (33,0 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 97,8 % (8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,0 % (4,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,4 % (20,2 %) dan iborat bo'ldi.



## YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




## 2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,2 % va xizmatlarda – 112,4 % qayd etildi.



**YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilga nisbatan % da)



Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot tahliliy ishlar bo'limi

Tel.: (76) 225-65-67